

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHGA BARCHAMIZ MAS'ULMIZ

Raximova Nargiza Xomidovna

Namangan viloyati yuridek

texnikumi

Davlat huquqiy faoliyati yo'nalishi,

1-bosqich, 101 guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada korrupsiya taraqqiyot kushandasi ekanligi, unga qarshi murosasiz kurashish, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun, prezident farmonlari va qarorlari mohiyati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiyaga oid huquqbuzarlik, qonun, jabrlanuvchi, guvoh, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, mansabdor shaxslar, agentlik, ommaviy axborot vositalari, davlat xizmatchilari, jamoatchilikning fikri.

Jamiyatda shunday illatlar borki, mazkur illatlar butun jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'ladi. Davlatni ichidan yemiradigan ana shunday illat – korrupsiyadir. Shu illat tufayli ko'plab davlatlarning inqirozga yuz tutgani ham tarixdan ma'lum.

Taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'yayotgan O'zbekiston uchun korrupsiyaning har qanday shakldagi ko'rinishi islohotlar shiddatini susaytirishi bilan xavfli. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev o'z vakolatiga kirishishi bilan Prezident sifatida imzo chekkan muhim birinchi hujjat 2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bo'ldi.

Mazkur qonunning 7-moddasida Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari ko'rsatib o'tilgan bo'lib,

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;

O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni qonunchilikka muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Shuningdek, mazkur qonunning 28-moddasida Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslarni va ularning yaqin qarindoshlarini himoya qilish tartibi ko'rsatilgan. Unga muvofiq, Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari davlat himoyasida bo'ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qiluvchi shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar xizmat sirini tashkil etadi hamda faqat qonunda nazarda tutilgan hollarda va shaxsning o'zining, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi organ rahbarining yozma ruxsati asosida oshkor etiladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qiluvchi shaxslarning hamda ularning yaqin qarindoshlarining hayotiga va sog'lig'iga haqiqiy tahdidni, ularga nisbatan zo'rlik ishlatilganligini, ularning mol-mulki yo'q qilinganligini yoki shikastlantirilganligini tasdiqlovchi yetarli asoslar mavjud bo'lgan taqdirda, korrupsiyaga qarshi kurashishni amalga oshiruvchi organlar «Jabrlanuvchilarni, guvohlarni va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini himoya qilish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq ularni himoya qilish bo'yicha zarur choralar ko'rishi shart.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi axborotni xabar qiluvchi shaxslarning va ularning yaqin qarindoshlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qilganligi sababli tajovuz qilishga, shuningdek ish beruvchi tomonidan ularning mehnatga oid huquqlari buzilishiga yo'l qo'yilmaydi hamda bu qonunga ko'ra javobgarlikka sabab bo'ladi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida xabar qiluvchi shaxslarni rag'batlantirish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ushbu moddaning qoidalari korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risida bila turib yolg'on axborotni xabar qilgan shaxslarga nisbatan tatbiq etilmaydi, ular bunday huquqbuzarlik uchun qonunga muvofiq javobgar bo'ladi.

Mazkur qonun me'yorlarining ijrosini ta'minlash, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan imzolangan 2019 yil 27 mayda imzolangan "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon ham muhim ahamiyatli hisoblanadi. Farmonning tub mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, korrupsiyaga qarshi nafaqat huquqni muhoza qiluvchi idoralar va davlat tashkilotlari, balki jamoatchilik nazorati instituti imkoniyatidan ham keng foydalanish belgilab qo'yilganini ko'rishimiz mumkin. Farmonda jamoatchilik nazoratini olib borishda muhim o'rin tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish alohida belgilangan. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish, ushbu sohadagi qonunbuzilish holatlari yuzasidan xabar bergan shaxslarni himoya qilishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish ta'kidlangan. Fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta'minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni tayyorlash, o'tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalb qilish nazarda tutiladi. Bundan tashqari, farmonda davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish vazifasi belgilab berildi. Bu norma, albatta, har bir mansabdor shaxsdan xulosa chiqarishni talab etadi. Vaholanki, bugun har bir davlat xizmatchisi va huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari xodimlarining fe'l-atvoriga O'zbekiston Respublikasi qonunlariga bo'ysunish va ularni hurmat qilish odobini singdirib borish o'ta muhim vazifadir. Farmonda nazarda tutilganidek, jamiyatimizda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash olib borilayotgan hozirgi davrda mansabdor shaxslarning huquqiy bilimi va madaniyati darajasiga nisbatan alohida talablar ishlab chiqish, qonunlarga hurmatsizlik qilgan mansabdor shaxslar to'g'risida asoslantirilgan ko'rsatuvlar, eshittirishlar tashkil qilish, maqolalar chop etib borish, ularning qilmishi noto'g'ri ekanligini ta'sirchan vositalar orqali ko'rsatib berish, albatta, o'z samarasini beradi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari tomonidan 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ham muhim hujjat hisoblanadi. Mazkur farmonni qabul qilishdan maqsad, Korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaviy holatlarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini oshirish, ushbu jarayonga jamoatchilikni keng jalb etish va korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish muhitini shakllantirishdan iboratdir.

Farmonga muvofiq quyidagilar belgilandi,

Jumladan, mamlakat rivojlanishining bugungi bosqichida korrupsiya O'zbekiston davlati va jamiyati taraqqiyoti uchun eng jiddiy xavf-xatarlardan biri ekanligi qayd etish;

Korrupsiya holatlarining har qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish va unga qarshi ayovsiz kurashish barcha darajadagi davlat organlari rahbar va xodimlarining eng ustuvor vazifasi etib belgilash;

Bosh prokuratura, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rinlarda — Agentlik), Davlat xavfsizlik xizmati va Ichki ishlar vazirligi korrupsiyaning har qanday ko'rinishlariga nisbatan javobgarlik muqarrarligini ta'minlash uchun barcha kuch va vositalarni safarbar etish.

Keng jamoatchilikning fikri va takliflarini inobatga olib, davlat boshqaruvini korrupsiyadan xoli sohaga aylantirish maqsadida Agentlik tomonidan «Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan

shaxslarning ochiq elektron reestri» yuritilishi ta'minlash, reestrga kiritilgan shaxslarga, davlat xizmatiga kirish va davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi;

saylanadigan va alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlarga nomzodlarining ko'rsatilishi;

davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari hamda idoralararo kollegial organlarning a'zosi bo'lish; ular tomonidan ta'sis etilgan va (yoki) ular ishtirokchisi hisoblangan tadbirkorlik sub'ektlari davlat xaridlarida va davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda ishtirokchi (ijrochi) sifatida qatnashish, shuningdek, davlat aktivlarini xususiylashtirish bilan bog'liq tender va tanlov savdolarida ishtirok etish;

davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar hamda davlat ta'lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritishi taqiqlandi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiya shunday illatki, uni bir yoki ikki idoraning sa'y-harakati bilan yo'q qilib bo'lmaydi. Qachonki, barcha fuqarolarimiz, jamiyat unga qarshi birgalikda kurashib, uning ildizlarini yo'q qilishga kirishilsagina ijobiy natijaga erishish mumkin. Korrupsiyaga qarshi barchamiz birgalikda kurashishimiz lozim. Jamiyatda korrupsiya degan illatning mavjudligi uning taraqqiyotiga to'siq bo'lishi mumkin. Shunday ekan har birimizdan mazkur illatga qarshi keskin va murosasiz kurashish talab etilishini yodimizdan chiqarmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent. Adolat 2019 y.
2. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni. O'RQ 419 son .www. Lex.uz.
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. www. Lex.uz.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni